XALQ DEPUTATLARI TOSHKENT TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

2024 - yil 9 - yanvar VI-74-1-10-212-K/24 Toshkent tuman hokimligi

XALQ DEPUTATLARI TOSHKENT TUMANI KENGASHINING QARORI

Toshkent tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetini va soliq stavkalarini tasdiqlash to‘g‘risida

Budjet kodeksining 99-moddasi, “2024 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq hamda Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 29 dekabr 2023 yildagi VI-85-121-10-0- K/ 23 raqamli qarori bilan tasdiqlangan Toshkent tumani hokimligining 2024 yilgi mahalliy byudjeti daromad va xarajatlari prognoziga asoslanib Xalq deputatlari Toshkent tuman Kengashining VI- chaqiriq navbatdagi LXXIV- sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatalri Toshkent viloyat Kengashining 29 dekabr 2023 yildagi VI-85-121-10-0- K/ 23 raqamli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2.Toshkent tumani xokimligining 2024 yildagi mahalliy byudjetining daromadlar va xarajatlar bo‘yicha tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (B.Abduraxmonov) ning xisoboti maqqullansin.

Toshkent tumani mahalliy budjetining 2024 yil uchun daromadlari 84 780 550.0 min.so‘m va xarajatlari 185 688 323.0 min.so‘m miqdorida (4-ilova) prognozlari qabul qilinsin.

3. 2024 yil uchun Toshkent tumani mahalliy budjeti daromadlar rejasi

ko‘rsatgichlari prognozi hamda 1-ilovaga muvofiq, 2024 yil uchun tuman mahalliy budjeti xarajatlari prognozi 2-ilovaga, mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 3-ilovaga muvofiq, tasdiqlanganligi ma’qqullansin.

Bunda, ajratmalar normativlari bo‘yicha tuman mahalliy budjetlarining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda Toshkent tumani bo‘yicha G‘aznachilik bo‘linmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

4.Tuman mahalliy budjetiga 2024 yil uchun viloyat budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transferlar miqdorlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transferlar miqdorini tuman mahalliy budjet daromad prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

5. 2024 yil uchun tuman budjeti zaxira jamg‘armasi 1 646 757 min.so‘m miqdorida belgilansin.

Tuman budjetining 2024 yil uchun zaxira jamg‘armalari tegishli budjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

Toshkent tumani tuman budjetining, tuman budjetini ijro etishda yuqori turuvchi budjetdan ularga ajratiladigan budjetlararo transferlarning prognozidan oshgan qismi uchun tegishli budjetlarining zaxira jamg‘armalar miqdorlariga aniqlashtirish kiritilmasligi inobatga olinsin.

6. 2024 yil uchun tumanning tuman budjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 1 049 869,0 min.so‘m miqdorida muvofiq belgilansin.

7. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha tuman kesimida, iqtisodiy rivojlanishiga qarab yer solig‘i stavkasiga 0,7 dan 1,3 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalari 7-ilovaga hamda yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutloq miqdorlari 8-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

8. O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2024 yilda Xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2024 yilda quyidagi soliq turlari:

9. Tuman budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘I;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘I;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘I;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq bundan mustasno);

davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlaridan tushadigan tushumlar.

b) viloyatning viloyat mahalliy budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

qonunchilikda belgilangan miqdorlardagi davlat bojlari (patent bojlaridan va litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan jarimalar;

ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig‘imlar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlardan, g‘ildirakli transport vositalari, o‘zi yurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig‘imidan, shuningdek, avtotransport vositalari oynalarining tusini o‘zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to‘lovdan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

yer uchastkalariga bo‘lgan mulk va ijara huquqini auksion orqali sotishdan kelib tushgan pul mablag‘lari;

davlat aktivlarini joylashtirish va sotish (xususiylashtirish)dan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar.

v) viloyat budjeti hamda tuman budjeti o‘rtasida quyidagi soliq turlari bo‘yicha taqsimlanadi:

benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘I;

aylanmadan olinadigan soliq;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘I;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, (elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq bundan mustasno).

Shu bilan birga, Qonunga muvofiq viloyat mahalliy budjetiga ajratma qilinadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tushumlarning (jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘lanadigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari) 64 foizi;

foyda solig‘idan tushumlarning (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek, norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari) 64 foizi miqdoridagi tushumlar viloyatning viloyat budjeti hamda shahar va tumanlar budjetlari o‘rtasida taqsimlanishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

10. O‘zbekiston Ruspublikasi Prezidentining 2022 yil 25 oktabrdagi “Jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish ko‘lamini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-409-son qaroriga asosan:

a) «Obod qishloq» va «Obod mahalla» dasturlari doirasida moliyalashtiriladigan tadbirlar jamoatchilik fikri asosida «Ochiq budjet» axborot portali orqali ovoz berish yo‘li bilan aniqlanishi.

Bunda, aholi tomonidan amalga oshirilishi taklif etilayotgan tadbirlar har bir mahalla bo‘yicha bitta loyihalar paketi shaklida ovozga qo‘yilishi;

b) Viloyat budjetida shakllangan qo‘shimcha mablag‘larning 30 foizi tuman (shahar)larda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun tuman (shahar)lar Fuqarolar tashabbusi jamg‘armalariga mavjud aholi soni va mahallalar sonidan kelib chiqib, teng ulushlarda yo‘naltirilishi;

v) tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari uchun tuman budjetlarining 5 foizi miqdorida rejalashtirilishi belgilanganligi.

11. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Sh.Salixov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (B.Abduraxmnov), tuman Davlat soliq inspeksiyasi (S.Abduvaliev):

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon hamda kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida bajarilishini taminlash;

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlashga alohida e’tibor qaratsin.

12. Tuman soliq inspeksiyasi (S.Abduvaliev), Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini, hisoblangan soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi taminlasin.

13.Tuman davlat soliq inspeksiyasi (S.Abduvaliev), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (B.Abduraxmnov), Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Toshkent viloyat hududiy boshqarmasi bilan birgalikda Davlat korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq davlat ulushi mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan 2024 yilning 1 iyuliga qadar 2023 yil yakunlari bo‘yicha o‘z sof foydasining 50 foizidan kam bo‘lmagan miqdoridagi ajratmalar va davlat ulushi bo‘yicha dividendlarni 2024 yilning 1 martidan kechiktirmay tegishli darajadagi budjetlarga o‘tkazilishini ta’minlasin.

14. Tuman hokimining o‘rinbosari (A.Oqiljonov), Chirchiq-Ohangaron irrigatsiya tizimlari xavza boshqarmasi Toshkent irrigatsiya bo‘limi (S.Avezov) va

tuman Davlat soliq inspeksiyasi (S.Abduvaliev) birgalikda tumanda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetlarga to‘liq undirib olish choralarini ko‘rsin.

Bunda, qishoq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resuslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

15. Kengashning mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida budjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berish va muhokama qilib borish;

Mahalliy budjet xarajatlarining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida maqsadli sarflanishini nazoratni olib borsin va sessiy muhokamasiga kiritib borish belgilab qo'yilsin.

16. Tuman hokimligi mazkur qaror rasmiy e’lon qilinishini va www.toshkent.toshvil.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlash tavsiya etilsin.

17 Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

18 Mazkur qarorning ijrosi Iqtisodiyot va moliya bo‘limi B.Abduraxmnovga, tuman Davlat soliq inspeksiyasi S.Abduvalievga, Chirchiq-Ohangaron irrigatsiya tizimlari xavza boshqarmasi Toshkent irrigatsiya bo‘limi S.Avezovga, Tuman hokimining o‘rinbosari A.Oqiljonovga, tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.Salixovga nazorati Xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi L.Uzdenov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **O.Rustamov**

Xalq deputatlari Toshkent tuman
Kengashining
2024-yil 9-yanvardagi
VI-74-1-10-212-K/24-son qaroriga
1-ilova

Toshkent tumani tuman budjeti daromadlarining 2024 yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/r	Daromad turlari	Jami
JAMI		**84 780 550**
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	5 739 050
2	Korxonalar aylanmasidan soliq	11 081 000
3	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 541 000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	8 496 550
5	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	5 591 100
6	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	22 440 000
7	Yuridik shaxslar yer solig‘i	2 686 600
8	Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	3 668 250
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	20 045 000
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	3 079 000
11	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	413 000

Xalq deputatlari Toshkent tuman
Kengashining
2024-yil 9-yanvardagi
VI-74-1-10-212-K/24-son qaroriga
2-ilova

2024 yil uchun tuman mahalliy budjeti xarajatlari reja ko‘rsatkichlari prognozi

Ko‘rsatkichlar		Miqdori (ming so‘m)
	Xarajatlar - jami	**185 688 323**
1.	**Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga xarajatlar - jami**	**117 873 180**
1.1	Maorif	28 334 447
	- maktabgacha ta’lim	16 159 921
	- umumiy ta’lim	12 174 526
1.2	Sog‘liqni saqlash	83 552 381
1.3	Madaniyat va sport, ommaviy axborot vositalari	5 634 434
	- madaniyat va ommaviy axborot vositalari	1 459 392
	- sport	4 175 042
1.4	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	46 000
1.5	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	305 918
2.	**Iqtisodiyotga xarajatlar**	**19 027 625**
2.1	Ichki xo‘jalik avtomobil yo‘llarni ta’mirlash xarajatlari	4 000 000
2.2	Fermerlar xo‘jaliklari buxgalteriya markazlari	298 619
2.3	Obodonlashtirish	8 920 115
2.4	Suv xo‘jaligi vazirligi tashkilotlari	1 641 698
2.5	Veterinariya qo‘mitasi	1 233 850
2.6	Mahalliy budjetlarda hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun	2 933 343
3	**Davlat boshqaruv organlarini saqlash**	**27 774 898**
3.1	Davlat boshqaruv idoralari	27 774 898
4	**Zahira jamg‘armasi**	**1 646 757**
5	**Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi**	**19 365 863**

Tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 100 907 773

Xalq deputatlari Toshkent tuman Kengashining
2024-yil 9-yanvardagi
VI-74-1-10-212-K/24-son qaroriga
3-ilova

Umumdavlat soliqlaridan shahar va tumanlar mahalliy budjetlariga ajratmalar me’yori

r	Shahar va tumanlar nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	Aylanma-dan olinadi-gan soliq	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq hamda Bo‘stonliq tumani bundan mustasno)	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq bundan mustasno)
1	**Toshkent tumani**	5	5	15	10	10	50	100	100

Xalq deputatlari Toshkent tuman
Kengashining
2024-yil 9-yanvardagi
VI-74-1-10-212-K/24-son qaroriga
4-ilova

Toshkent tumanning shahar va tuman budjetlarining 2024 yil daromadlari va xarajatlari prognozlari

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Daromad	Xarajat
1	Toshkent tumani	84 780 550.0	185 688 323.0
	JAMI	**84 780 550.0**	**185 688 323.0**

Xalq deputatlari Toshkent tuman
Kengashining
2024-yil 9-yanvardagi
VI-74-1-10-212-K/24-son qaroriga
5-ilova

Toshkent tuman shahar va tumanlar budjetlariga 2024 yilda viloyat budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so‘mda

T/r	Shahar va tumanlar	Summa
1	Toshkent tumani	100 907 773.0
	JAMI	**100 907 773.0**

Xalq deputatlari Toshkent tuman
Kengashining
2024-yil 9-yanvardagi
VI-74-1-10-212-K/24-son qaroriga
6-ilova

Toshkent tuman viloyat, shahar va tumanlar budjetlarida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Miqdor
1	Toshkent tumani	1 049 869,0
	JAMI	**1 049 869,0**

Xalq deputatlari Toshkent tuman
Kengashining
2024-yil 9-yanvardagi
VI-74-1-10-212-K/24-son qaroriga
7-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha tuman kesimida yer solig‘i stavkalari uchun 2024 yilda belgilangan koeffitsientlar

T/r	MFY nomi	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari, 1 ga uchun		Jismoniy shaxslar bo‘yicha, 1 kv.m uchun	
		Koeffitsient (0,7 dan 3 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2024 yil uchun (ming so‘mda)	Koeffitsient (0,7 dan 3 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2024 yil uchun (so‘mda)
1	Avliyo ota MFY	1,00	51 800,00	1,10	512,82
2	Ayriota MFY	0,75	38 850,00	1,00	466,20
3	Alisher Navoiy MFY	1,10	56 980,00	1,10	512,82
4	Axillik MFY	0,80	41 440,00	1,00	466,20
5	Baxor MFY	1,00	51 800,00	1,10	512,82
6	Beruniy MFY	0,75	38 850,00	0,90	419,58
7	Beshterak MFY	0,75	38 850,00	0,90	419,58
8	Bogbon MFY	0,75	38 850,00	1,00	466,20
9	Bogizilol MFY	1,00	51 800,00	1,10	512,82
10	Bunyodkor MFY	1,00	51 800,00	1,10	512,82
11	Gisht kuprik MFY	0,75	38 850,00	1,00	466,20
12	Gul tepa MFY	0,75	38 850,00	0,80	372,96
13	Gulobod MFY	0,75	38 850,00	1,00	466,20
14	Darxon MFY	1,00	51 800,00	1,10	512,82
15	Diydor MFY	1,00	51 800,00	1,10	512,82
16	Zarbdor MFY	0,75	38 850,00	0,90	419,58
17	Zargar MFY	0,75	38 850,00	1,00	466,20
18	Zaxarik MFY	0,75	38 850,00	1,00	466,20
19	Ibrat MFY	0,75	38 850,00	1,00	466,20
20	Iqbol MFY	1,15	59 570,00	1,15	536,13
21	Istikbol MFY	0,70	36 260,00	0,80	372,96
22	Iftihor MFY	1,10	56 980,00	1,10	512,82
23	Kalas MFY	0,75	38 850,00	1,00	466,20

24	Kashkarlik MFY	0,75	38 850,00	1,00	466,20
25	Kensoy MFY	0,75	38 850,00	0,80	372,96
26	Kizgaldok MFY	1,00	51 800,00	1,10	512,82
27	Kir-arik MFY	0,85	44 030,00	1,10	512,82
28	Kora burik MFY	0,75	38 850,00	0,80	372,96
29	Korasaroy MFY	0,95	49 210,00	1,10	512,82
30	Kukterak MFY	0,85	44 030,00	1,10	512,82
31	Kuruvchi MFY	0,75	38 850,00	0,80	372,96
32	Kuxinur MFY	0,75	38 850,00	0,80	372,96
33	Kush kundi MFY	0,70	36 260,00	0,80	372,96
34	Ko‘ksaroy MFY	1,00	51 800,00	1,10	512,82
35	Majnuntol MFY	0,75	38 850,00	1,00	466,20
36	Ma’rifat MFY	0,75	38 850,00	1,00	466,20
37	Mustakillik MFY	0,75	38 850,00	0,90	419,58
38	Nurxayot MFY	0,75	38 850,00	1,00	466,20
39	Obodlik MFY	0,85	44 030,00	1,10	512,82
40	Ozodlik MFY	1,00	51 800,00	1,10	512,82
41	Oydin xayot MFY	0,75	38 850,00	1,00	466,20
42	Okibat MFY	1,00	51 800,00	1,10	512,82
43	Oktom MFY	0,70	36 260,00	0,80	372,96
44	Oktosh MFY	0,70	36 260,00	0,80	372,96
45	Oltin tepa MFY	0,75	38 850,00	0,90	419,58
46	Raxbar obod MFY	1,00	51 800,00	1,10	512,82
47	Sabzavot MFY	1,00	51 800,00	1,10	512,82
48	Sagbon MFY	0,85	44 030,00	1,10	512,82
49	Sanoat MFY	0,75	38 850,00	1,00	466,20
50	Sarke MFY	0,70	36 260,00	0,80	372,96
51	Sirgali MFY	0,70	36 260,00	0,80	372,96
52	Soxibkor MFY	0,80	41 440,00	1,00	466,20
53	Tinchlik MFY	0,85	44 030,00	1,10	512,82
54	Tutzor MFY	1,15	59 570,00	1,15	536,13
55	Uch sada MFY	0,90	46 620,00	1,10	512,82
56	Uch-chinor MFY	0,75	38 850,00	1,00	466,20
57	Fayzobod MFY	1,00	51 800,00	1,10	512,82
58	Farovon MFY	0,70	36 260,00	1,00	466,20

59	Xalimko‘p MFY	0,70	36 260,00	1,00	466,20
60	Xasanboy guzar MFY	1,00	51 800,00	1,10	512,82
61	Xasanboy MFY	1,00	51 800,00	1,10	512,82
62	Hiyobon MFY	0,70	36 260,00	1,00	466,20
63	Xuvaydo MFY	1,00	51 800,00	1,10	512,82
64	Chigatoy MFY	1,00	51 800,00	1,10	512,82
65	Chuvalachi MFY	0,70	36 260,00	0,80	372,96
66	Shamsiobod MFY	0,70	36 260,00	0,90	419,58
67	Shirin MFY	0,70	36 260,00	1,00	466,20
68	E’zoz MFY	0,80	41 440,00	1,10	512,82
69	Yangixayot MFY	0,75	38 850,00	0.8	372,96
70	O‘rikzor MFY	0,75	38 850,00	0.8	372,96

Xalq deputatlari Toshkent tuman
Kengashining
2024-yil 9-yanvardagi
VI-74-1-10-212-K/24-son qaroriga
8-ilova

Yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutloq miqdorlari

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Koeffitsient (mutloq miqdor)	Belgilangan qiymat (so‘m)
1	Toshkent tumani	1	1 200 000